

Turk tili

Vikipediya, ochiq ensiklopediya

Turk tili (Turkcha: *Türkçe*) — soʻzlashuvchisi eng koʻp bolgan turkiy til. Turk tilida gaplashuvchilar asosan Turkiyada yashashadi. Shimoliy Kipr, Iroq, Bolgariya, Yunoniston, Ozarbajjon, Turkmaniston, Eron, Oʻzbekiston, Olmoniya, Niderlandlar kabi davlatlarida ham turk tilida gaplashuvchilar bor.

Turk tili — turkiy tillarpgm biri. Asosan, Turkiyada, shuningdek, Iroq, Suriya, Eron, Ruminiya, Bolgariya, Gretsiya, Rossiya, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya, Kipr oroli, Makedoniya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. Turkiya Respublikasining va Kipr Respublikasining (grek tili bilan birga) rasmiy tili hisoblanadi. Oʻtgan asr oxirlarida soʻzlashuvchilarning umumiy soni 55 mln. ga yaqin (Turkiyaning oʻzida 50 mln. dan ortiq) kishini tashkil etgan. Dialektal jihatdan Turkiyada Sharqdagi, ayniqsa, Anatoliya shim.sharqidagi mintaqa ozarbajjon tiliga oʻxshashlik belgilari bilan ajralib turadi. Anatoliyaning boshqa qismi hamda sharqiy frakiya shevalari, shuningdek, boshqa mamlakatlardagi Turk tili lahjalari oʻzaro unchalik farq qilmaydi.

Turk tilining fonetik oʻziga xosliklari: soʻz boshidagi va oʻrtasidagi j undoshining qarindosh turkiy tillardagi boshqa oʻxshash tovushlarga toʻgʻri kelishi, soʻz boshidagi rv, td, kg jarangeizlari va jaranglilarining farqlanishi va singarmonizmning mavjudligi, bir qancha soʻzlarda portlovchi v oʻrniga sirgʻaluvchi v undoshining kelishi; boshqa turkiy tillardagi "vo1" feʻlining "ol" tarzida qoʻllanishi va boshqa Morfologik belgilaridan mis shaklli sifatdoshning qipchoq va boshqa bir qancha turkiy tillardagi gan shaklli sifatdosh bilan vazifadoshligi; dik shaklli qad. harakat nomi va uog shaklli aniq hozirgi zamon feʻlining faol qoʻllanishi va boshqa ni koʻrsatish mumkin.

Adabiy Turk tili hozirgi shaklida 19-asr oʻrtalaridan shakllana boshlaydi. Bu davrda oʻrta asr adabiy tili (eski turk yoki usmonli turk tili) arabcha, forsha elementlarga boy boʻlgan. 20-asrning 20-yillaridagi islohotlardan soʻng adabiy til umumxalq soʻzlashuv tili bilan yaqinlashdi. Eski Turk tili ning arab yozuvida bitilgan yodgorliklari 13-asrdan boshlab mavjud. Dastlabki yodgorliklarda sharqiy turkiy (qoraxoniyuygʻur) adabiy tilining sezilarli taʼsiri bor. Hozirgi yozuvi 1929 yildan lotin grafikasi asosida.

Grammatikasi

Kelishiklar

Turk tili	
Milliy nomi	Türk dili, Türkçe
Mamlakatlar	<u>Turkiya</u> , <u>Shimoliy Kipr</u> , <u>Iroq</u> , <u>Bolgariya</u> , <u>Yunoniston</u> , <u>Ozarbajjon</u> , <u>Turkmaniston</u> , <u>Eron</u> , <u>Oʻzbekiston</u> , <u>Olmoniya</u> , <u>Niderlandlar</u>
Rasmiylik holati	 <u>Turkiya</u>
Soʻzlashuvchilarning umumiy soni	83 million
Turkumlanishi	
Til oilasi	Oltoy Turkiy tarmoq Oʻgʻuz guruhi
Alifbosi	lotin
Til kodlari	
ISO 639-1	tr
ISO 639-2	tur
ISO 639-3	tur

Turk tilida 5 ta kelishik bor.

	Kelishiklar	Kelishik ko'rsatkichlari	Kelishik savollari	Misollar
1	Bosh kelishik (Yalın hâl)	—	Kim? Ne? Nere(si)? (Kim? Nima? Qayer?)	anne, üzüm, balık, Tokat, Ankara ona, uzum, baliq, <u>To ' kot</u> , <u>Onkoro</u>
2	Tushum kelishigi (Belirtme hâli)	-ı, -i, -u, -ü -yı, -yi, -yu, -yü	kimi? neyi? nereyi? (Kimni? Nimani? Qayerni?)	anneyi, üzümü, balığı, Tokat ' ı, Ankara ' yı onani, uzumni, baliqni, To ' kotni, Onkoroni
3	Jo ' nalist kelishigi (Yönelme hâli)	-a, -e, -ya, -ye	kime? neye? nereye? (Kimga? Nimaga? Qayerga?)	anneye, üzüme, balığa, Tokat ' a, Ankara ' ya onaga, uzumga, baliqga, To ' kotga, Onkoroga
4	O ' rin-payt kelishigi (Bulunma hâli)	-da, -de, -ta, -te	kimde? ne(y)de? nerede? (Kimda? Nimada? Qayerda?)	annede, üzümde, balıkta, Tokat ' ta, Ankara ' da onada, uzumda, baliqda, To ' kotda, Onkoroda
5	Chiqish kelishigi (Ayrılma hâli)	-dan, -den, -tan, -ten	kimden? ne(y)den? nereden? (Kimdan? Nimadan? Qayerdan?)	anneden, üzümünden, balıktan, Tokat ' tan, Ankara ' dan onadan, uzumdan, baliqdan, To ' kotdan, Onkorodan
*	Qaratqich kelishigi (Tamlayan hâli)	-in, -in, -un, -ün -nın, -nin, -nun, -nün	kimin? neyin? nerenin? (Kimning? Nimaning? Qayerning?)	annenin, üzümün, balığın, Tokat ' ın, Ankara ' nın onaning, uzumning, baliqning, To ' kotning, Onkoroning
*	Ko ' makchi kelishik (Araç hâli)	-la, -le, -yla, -yle	kim(in)le? neyle? nereyle? (Kim bilan? Nima bilan? Qayer bilan?)	anneyle, üzümla, balıkla, Tokat ' la, Ankara ' yla ona bilan, uzum bilan, baliq bilan, To ' kot bilan, Onkoro bilan

Havolalar

- O 'zbekcha<>turkcha lug 'at (<http://ctle.pau.edu.tr/uztr>)
- O 'zbekcha-turkcha lug 'at (<http://www.kurgun.com/sozlukler/index.php?a=index&d=22>)
- Turk tilini o 'rganish (<https://sites.google.com/site/learningturkishsite/>) ^(ingl.)

К • М • Т (https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Andoz:Turkiy_villalar&action=edit)

Turkiy villalar

Qiya yozuvda o 'lik tillar

Bulg 'or *Bulg 'or • Chuvash • Xun • Xazar • Turkiy Avar*

Qarluq *Qadimgi Turkiy • Ayni¹ • Xorazmiycha turkiy • Chig 'atoy • Ili Turki • Lop • Uyg 'ur • O 'zbek*

Qipchoq *Oltoy • Baraba • Boshqird • Qirim tatar² • Kuman • Fergana Kipchak • Qorachoy-Bolqor • Qaraim • Qoraqalpoq • Qozoq • Qipchoq • Qirimchaq • Qo 'miq • Qirg 'iz • No 'g 'oy • Eski Tatar • Tatar • Urum²*

O 'g 'uz *Afshar • Ozarbayjon • Crimean Tatar • Gagauz • Balkan Gagauz Turkish • Xuroson-turkiy • Old Anatolian Turkish • Usmonli turk • Pecheneg³ • Qashqay • Salar • Turk • Turkman • Urum*

Arg 'u *Xalaj*



Ushbu maqolada Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) maʼlumotlaridan foydalanilgan.

"https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Turk_tili&oldid=2009388" dan olindi

Bu sahifa oxirgi marta 16-Avgust 2018, 19:21 da tahrir qilingan.

Matn Creative Commons Attribution-ShareAlike litsenziyasi boʻyicha ommalashtirilmoqda, alohida holatlarda qoʻshimcha shartlar amal qilishi mumkin (batafsil).